

O`ZBEK ADABIY TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Ashurova Sevinch Murodjon qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika Instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589140>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada qadimgi turkiy til, o`rta asr tillari va o`zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari haqida so`z yuritilgan. O`zbek tili bugungi ko`rinishiga kelgunga qadar juda katta tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o`tgan. O`zbek tili qadimgi turkiy til, eski o`zbek tili hamda hozirgi o`zbek tili kabi bosqichlarga bo`linadi. Turkiy til rivojida bobokalonlarimiz asarlari katta ahamiyatga ega.

Kalit so`zlar: o`zbek tili, turkiy til, "Hibat ul – haqoyiq", "Devoni lug`otit turk", "Qutatg`u bilig`".

Turkiy tillar qadimda mo`g`il va tunguz – manjur tillari bilan birgalikda bitta oilani tashkil etgan va bu til oltoy tili deb atalgan. Keyinchalik oltoy tili tarmoqlanib ketgan. Afsuski, bu davrdan xabar beruvchi yozma yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan, lekin qadimiy turkiy til davriga oid bir qancha yozma manbalarga egamiz. "O`rxun Enasoy" uyg`ur sug`d yozuvlari shular jumlasidandir. Mazkur yozuvlar hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy sanaladi.

Qoraxoniylar tomonidan ikki rivojlangan madaniy markazning sharqda uyg`ur madaniyatining va g`arbda Markaziy Osiyoda turk- eron madaniyatining birlashtirilishi uning yozma madaniyatida ham o`z

ifodasini topdi. Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklardan biri Mahmud Koshg`ariyning "Devoni lug`otut -turk" nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialekta xususiyatlari haqida to`la ma`lumot beruvchi qimmatli manba. Mahmud Koshg`ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o`rtasida umumiy jihatlar va farqlarini aniqlagan holda qiyosiy tarixiy tilshunoslik deb nomlanuvchi tilshunoslik yo`nalishiga asos soldi.

Qoraxoniylar davrining ikkinchi yirik yozma yodgorligi Yusuf Xos Hojibning "Qutatg`u bilig`" asari hisoblanadi. Bu asar yirik badiiy – tarbiyaviy asar bo`lib, turkiy adabiyot tarixida juda



katta ahamiyatga ega . Shuningdek , Xo`ja Ahmad Yassaviyning “Hikmatlari”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul- haqoyiq ” asarlari shu davrning eng buyuk adabiy durdonalaridir .Alisher Navoiy asos solgan adabiy til, adabiy uslub ancha asrlargacha qo`llanib kelgan.Ammo bu davrdan boshlab,mumtoz adabiy tilning ba`zi tomonlaridan uzoqlashish, zamonasining so`zlashuv tiliga yaqin bir tilda ijod qilish jarayoni boshlangan edi.XVII asrda yashab, ijod etgan Abulg`oziy Bahodirxon: “Turklarga turkona aytmoq kerak, to alarning barchasi fahm qilg`aylar bizning aytgan so`zimizni” deb yozgan edi. Navoiy yaratgan yozma uslub XIX asrgacha davom etdi.XVII asrdan boshlab yozuvchi va shoirlar mumtoz eski o`zbek o`zbek tilining ommabop tomonlarini o`ziga singdirgan va so`zlashuv tiliga xos bo`lgan xususiyatlarni aks ettirgan tilda-yangi o`zbek adabiy tilida ijod qila boshladilar. XVIII-XIX asr yozuvchi va shoirlar –Boborahim Mashrab, Muhammad Hoksor, Munis, Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy yangi o`zbek tilida ijod qilib, uni mukammallashtirdilar.

Buxoro xonligi va qo`ng`irotlar urug`i hukmron Xorazm xonligi, keyinroq ming uru`gi bosh bo`lgan Qo`qon xonligi barpo bo`ladi. Bu xonliklarda asosiy adabiy til yangi o`zbek tili bo`lib bu hududda yashagan turli urug`ga mansub yozuvchi, shoir, tarixchilar shu tilda ijod etdilar. Ammo Buxoro va Samarqandda asosan eronzabon va eronzabonlashgan turkiy urug`lar bo`lgani uchun tojik tilida yuritilar edi.

Mustamlakachilik davrida cheklangan bo`lsa-da, sanoat va savdoning o`sishi, maorif va madaniyatda bo`lgan o`zgarishlar mahalliy ziyolilarning yangi yunalishining shakllanishiga sabab bo`ldi. Bu esa jadidlik kabi milliy oqimning kelib chiqishiga olib keldi. Jadidlar Munavvar qori, Behbudiy, Avloniy Cho`lpon, Fitrat, Zakiy, Validiy va boshqalar yangi usuldagi maktablar ochib, dunyoviy ilmlarni, rus tilini o`qita boshladilar.Samarqandda 1870-yili, Chimkentda 1874-yili birinchi rus-tuzem maktablari ochildi.”Asrimizning bosh larida jadidlarning o`z hisobidan, maktablar ,kutubxonalar,qiroatxonalar, teatrlar ,ro`znomalar tashkil etganliklarini, darslik, qo`llanmalar nashr qilganliklarini , ularni Turkiston bolalariga bepul tarqatganliklarini bir eslaylik”.Albatta,bu davrda nashr etilgan gazeta va jurnallar “Turon”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Sadoi Farg`ona”, “Samarqand”, “Najot”, “Ulug` Turkiston”, “Sadoi Turkiston”, “Oyna”,“ Turkiston eli”,



“Hurriyat” va boshqalar chor amaldorlarining qattiq nazorati ostida bo‘lib, dam ochilib, dam yopilib turdi.

Mustamlaka davrida milliy tillarga davlat tili maqomi berish haqida gap bo‘lishi mumkin emas edi. Agar rus tiliga davlat tili maqomi berilsa, milliy tillar asta-sekin yo‘qolishiga yuz tutar edi. Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston mustaqil bo‘lgach, uning tili ham davlat tili maqomini olishi qonuniy bo‘lgani ma‘lum bo‘ldi.

Har bir xalq mustaqilligining asosiy belgilaridan biri o‘z ona tili bilan, unga bo‘lgan hurmat va e‘tibor bilan belgilanadi, 1989-yillarning oxirlarida o‘zbek xalqining mustaqillikka intilishi, avvalo, o‘z ona tiliga izzat-hurmat talab qilish bilan boshlandi. 1988-yil boshlarida davlat tili masalasi matbuotda keskin ko‘tarildi. 1989-yil boshlarida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish to‘g‘risidagi Qonun loyihasi e‘lon qilindi. Ko‘pchilik o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berishni yoqlab chiqsa ham, ammo ba‘zilar o‘zbek tilini faqat rasmiy til deb hisoblash zarurligi, ba‘zilar o‘zbek tili bilan barobar rus tiliga ham davlat tili maqomi berilishi masalasini qo‘ydilar. Ba‘zilar esa o‘zbek tili necha yuz yillardan beri O‘zbekiston o‘lkasining tili bo‘lib keldi, hech qaysi tilga davlat tili maqomini berish kerak emas, deya da‘vo qildilar. Davlat tilini belgilash bo‘yicha tashkil etilgan Ishchi Komissiya “Davlat tili haqida”gi Qonun loyihasining muhokamasi bo‘yicha berilgan fikrlarni va Komissiya nomiga kelgan mingdan ortiq xatlardagi takliflarni o‘rganib, 1989-yilning bahorida “Davlat tili haqida”gi Qonunning ikkinchi loyihasini e‘lon qildi. Qayta ishlangan yangi loyiha ham keng muhokama qilinib, 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish to‘g‘risida O‘zbekiston Oliy Sovet II sessiyasi Qonun qabul qildi. Bu qonun O‘zbekiston Respublikasi hali SSSR tarkibida bo‘lgan vaqtda qabul qilingan edi. O‘zbekistonning sobiq Ministrlar Soveti Qonunni amalga oshirish choralari to‘g‘risida Davlat Dasturini qabul qilish to‘g‘risida 1997-yil 19-fevralda qaror qabul qildi va o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risidagi Qonunni qabul qilgan kunni har yili alohida nishonlashni belgilab chiqdi.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи



таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris “Devonu lugotit turk” in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

⁵ Bakhriddinova, B. M. (2020). “DEVONU LUGOTIT TURK” AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

This article covers the main place of small business and business in today's market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққийетининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.⁹

Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan "Bo'ysunmagan" ("The Unconquered") deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali ochib beriladi¹⁰

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.¹¹

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

¹⁰ Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

¹¹ Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.



In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.¹²

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). “DEVONU LUGOTIT TURK” AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

¹² Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

¹³ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>
9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>
10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>
11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.
12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.